

KOMPYUTER AXBOROTI SOHASIDAGI JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DALILLARDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

Feruz Yusufovich BADALBOYEV

Mustaqil izlanuvchi

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-1619-2702>

feruz.badalboev@gmail.com

Аннотация

Maqola kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda raqamli dalillardan foydalanish muammolariga bag'ishlangan. Unda raqamli dalillar turlari, ularni yig'ish, autentifikatsiya qilish tergov va sud jarayonida qo'llash jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ma'lumot hajmi, shifrlash va texnik cheklovlar kabi muammolar ko'rib chiqilgan. Xalqaro tajriba, jumladan Budapesht (2001) va BMT Konvensiyalari (2024) misolida raqamli dalillardan foydalanish standartlari muhokama qilingan.

Tayanch so'zlar: raqamli dalillar, elektron dalillar, kompyuter jinoyatlari, tergov, xalqaro konvensiyalar.

ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В СФЕРЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ИНФОРМАЦИИ

Феруз Юсуфович БАДАЛБОЕВ

Независимый исследователь

Академия Министерства внутренних дел

Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье рассматриваются проблемы использования цифровых доказательств при расследовании преступлений в сфере компьютерной информации. В ней проанализированы виды цифровых доказательств, аспекты их сбора, аутентификации, а также применения в ходе следственного и судебного процессов. Кроме того, рассматриваются такие проблемы, как объем данных, шифрование и технические ограничения. На примере международного опыта, включая Будапештскую конвенцию (2001) и Конвенцию ООН (2024), обсуждаются стандарты использования цифровых доказательств.

Ключевые слова: цифровые доказательства, электронные доказательства, компьютерные преступления, расследование, международные конвенции.

Raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va shaklini tubdan

o'zgartirib, yangi huquqiy voqelikni vujudga keltirmoqda. Xususan, kompyuter axboroti sohasida sodir etiladigan jinoyatlar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarga, balki davlat xavfsizligi, shaxs huquq va erkinliklariga ham jiddiy tahdid solmoqda. Bunday jinoyatlar, odatda, virtual muhitda, masofadan turib, yashirin usullarda sodir etiladigan bo'lib, ularni aniqlash va fosh etish an'anaviy tergov usullari bilan cheklanib qolishga imkon bermaydi.

Kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarni tergov qilish jarayonida dalillar, asosan, raqamli formatdagi ma'lumotlar orqali namoyon bo'ladi. Elektron qurilmalar, serverlar, axborot tizimlari, mobil aloqa vositalari hamda internet tarmoqlari jinoyat izlarini saqlovchi asosiy manbalarga aylanmoqda. Shu bois, raqamli dalil vositalari jinoyat ishi bo'yicha ishni sudga qadar yuritish jarayonida muhim ahamiyat kasb etib, ularni to'g'ri aniqlash, o'z vaqtida yig'ish, mustahkamlash va baholash jinoyatni to'liq va xolisona ochishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqamli dalil vositalarining o'ziga xos xususiyatlari ular bilan ishlashda qator muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan, raqamli ma'lumotlarning tez o'zgaruvchanligi, oson yo'qotilishi yoki o'zgartirilishi mumkinligi, ularning ko'p hollarda moddiy tashuvchisiz mavjud bo'lishi tergovchi va surishtiruvchi oldida murakkab vazifalarni qo'yadi. Bunday sharoitda dalillarning yaxlitligi, haqqoniyligi va ishonchliligini ta'minlash, ularni protsessual tartibda rasmiylashtirish masalalari alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Amalda esa kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda raqamli dalil vositalaridan foydalanish jarayonida jinoyat-protsessual qonunchilik normalarini qo'llashda muayyan muammolar kuzatilmoqda. Jumladan, raqamli dalillarni yig'ish va mustahkamlashga oid tergov harakatlarini o'tkazish tartibining yetarli darajada aniq emasligi, texnik vositalardan foydalanish qoidalarining bir xilda qo'llanilmasligi, shuningdek, raqamli dalillarni baholashda yagona ilmiy va amaliy yondashuvning mavjud emasligi amaliyotda bahsli holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda raqamli dalil vositalaridan samarali foydalanish kriminalistikaning zamonaviy yutuqlarini, maxsus texnik bilimlarni hamda sud ekspertizasi imkoniyatlarini keng qo'llashni taqozo etadi. Biroq tergov amaliyotida raqamli dalillar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar tayyorgarligining yetarli emasligi, ekspertiza tayinlash va o'tkazish jarayonlarida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar mazkur sohadagi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda.

Yuqorida keltirilgan holatlar kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda raqamli dalil vositalaridan foydalanish muammolarini kompleks ilmiy tahlil qilish, ularni jinoyat-protsessual va kriminalistik nuqtayi nazardan o'rganish, shuningdek, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot aynan shu vazifalarni hal etishga qaratilgan bo'lib, uning natijalari tergov va sud amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ayni paytda axborot sohasida kompyuter texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda raqamli dalil vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday jinoyatlar bo'yicha dalillar, odatda, raqamli qurilmalar xotirasida, axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari yoki telekommunikatsiya tarmoqlarida saqlanadi. Shu bois, ushbu dalillarni aniqlash, yig'ish, tiklash va saqlab qolish jarayonlari axborot sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishning samaradorligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [1].

Axborot xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridan, raqamli dalil vositalaridan foydalanish orqali kiberhujumlar jarayonida qoldirilgan raqamli izlarni aniqlash va mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Biroq amaliyotda mazkur dalillarni asl holda (o'zgarishsiz) saqlash, ularning haqqoniyligini ta'minlash hamda protsessual tartibda rasmiylashtirish bilan bog'liq qator muammolar mavjud. Ayniqsa, texnik imkoniyatlar bilan protsessual talablar o'rtasidagi nomuvofiqlik axborot sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda raqamli dalil vositalaridan foydalanish samaradorligini kamaytiradi [3].

An'anaviy usullar asosan raqamli ma'lumotlar bilan ishlashga qaratilgan bo'lib, ular asosan yo'qolgan yoki buzilgan ma'lumotlarni tiklash vazifasini

bajarish uchun ishlab chiqilgan. 1980-yillarning oxirida esa raqamli ma'lumotlarni tiklash imkonini beruvchi turli dasturiy ilovalar – masalan, Unformat, Undelete, Diagnose & Remedy va boshqalari keng qo'llanila boshladi.

1999–2007-yillar raqamli ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalarining jadal rivojlanish davri sifatida baholanadi. Mazkur bosqichda ilgari o'chirilgan deb hisoblangan ma'lumot qoldiqlarini tiklash, shuningdek, elektron pochta orqali almashilgan xabarlarni qayta tiklash orqali o'tmishda sodir bo'lgan voqealarni tahlil qilish imkoniyati yaratildi. Tarmoq muhiti va operativ xotira ma'lumotlarini tahlil qilish usullari jinoyatlarni sodir etish jarayonlarini hatto ular amalga oshirilganidan ancha vaqt o'tganidan keyin ham aniqlash imkonini berdi. Ushbu davr butun dunyo miqyosida raqamli dalillar bilan ishlash sohasida ilmiy tadqiqotlarning keng ko'lamda rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Hozirgi vaqtda esa so'nggi o'n yilliklarda ishlab chiqilgan raqamli dalillarni tahlil qilish usullarining katta qismi amaliyotdagi dolzarbligini yo'qotib bormoqda. Mazkur sohada olingan ayrim ilmiy natijalar va amaliy yutuqlar ma'lum ma'noda o'z ahamiyatini yo'qotish tahdidi ostida qolmoqda. Bu holat, asosan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, yangi dasturiy-apparat vositalarning paydo bo'lishi hamda ma'lumotlarni saqlash va uzatish usullarining tubdan o'zgarishi bilan bog'liq [4].

Aynan shu sharoitda axborot sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda raqamli dalillar bilan ishlash jarayoni qator muhim muammolarga duch kelmoqda. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

Ma'lumot saqlovchi qurilmalar sonining ortishi. Ma'lumot saqlovchi qurilmalar turlari va sonining ko'payishi tergovchi, surishtiruvchi hamda ekspertiza o'tkazuvchi mutaxassislar uchun obyekt bo'lgan qurilmaning to'liq texnik-axborot tavsifini shakllantirish va unda mavjud barcha ma'lumotlarni tahlil qilish uchun zarur vaqtning yetishmasligiga olib kelmoqda. Natijada, tergov harakatlarini samarali amalga oshirish, raqamli dalillarni to'liq va haqqoniy rasmiylashtirish hamda ularning sud muhokamasida ishonchliligini ta'minlashda qator qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Ma'lumot almashishning apparatli interfeyslari sonining ortishi. Turli xil apparatli interfeyslarning mavjudligi ma'lumot saqlovchi qurilmalardan axborotni standart usullar orqali to'liq ko'chirish, uni tahlil qilish va vizualizatsiya qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Bu holat tergov jarayonida qurilmada saqlanayotgan barcha ma'lumotlarni aniqlash va tizimli ravishda tasvirlash jarayonini sezilarli darajada murakkablashtiradi.

Operatsion tizimlar va fayl formatlarining kengayishi. Yangi operatsion tizimlar hamda fayl formatlarining doimiy ravishda yaratilib borilishi mavjud raqamli dalillar bilan ishlash vositalarini muntazam yangilash va takomillashtirishni talab qiladi. Bunday vositalarni ishlab chiqish va joriy etish esa, odatda, katta moliyaviy va tashkiliy xarajatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida bir nechta qurilmalarni tahlil qilish zarurati. Agar avval axborot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha tergov holatlari asosan bitta qurilma doirasida amalga oshirilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ko'p hollarda bir vaqtning o'zida bir nechta qurilmalarni tahlil qilish va ulardan olingan raqamli dalillarni o'zaro taqqoslash talab etilmoqda. Bu esa tergov va ekspertiza jarayonlarini samarali tashkil etishda qo'shimcha tashkiliy va texnik muammolarni keltirib chiqaradi.

Ma'lumotlarning keng qo'llanilayotgan shifrlanishi. Axborotlarni himoya qilish maqsadida shifrlash vositalarining keng tarqalishi raqamli dalillarni qayta ishlash jarayonini sezilarli darajada qiyinlashtirmoqda. Hatto ma'lumotlarni tiklash imkoniyati mavjud bo'lgan hollarda ham, ularning mazmunini to'liq tahlil qilish amalda ko'p hollarda imkonsiz bo'lib qolmoqda.

Zararli dasturlar va operativ xotira ma'lumotlari bilan ishlash muammolari. Ayrim zararli dasturlar doimiy ma'lumot saqlovchi qurilmalarga yozilmasdan, faqat operativ xotirada faoliyat yuritadi. Bunday holatlarda axborotni aniqlash va tahlil qilish maxsus texnik vositalar hamda yuqori malakali mutaxassislarni jalb etishni talab qiladi. Bu esa raqamli dalillar bilan ishlash jarayonida texnik va moliyaviy xarajatlarni oshiradi.

Hozirgi vaqtda raqamli dalillar bilan ishlashning nazariy asosini Edmond Lokar tomonidan ilgari surilgan almashinuv tamoyili tashkil etadi. Unga ko'ra, har qanday obyektning boshqa obyekt yoki muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida ma'lum iz qoladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nuqtayi nazaridan mazkur qoida shunday talqin qilinadiki, raqamli qurilmalar va axborot tizimlaridan foydalangan har qanday shaxs o'z faoliyati natijasida muayyan raqamli izlarni qoldiradi [7].

Shu tariqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanuvchi shaxs o'z faoliyati davomida turli xil raqamli izlarni shakllantiradi. Bunday izlar shaxsning yoshi, jinsi, geolokatsiya ma'lumotlari, irqiy va milliy mansubligi, oilaviy ahvoli, bank kartalariga oid ma'lumotlar va boshqa shu kabi axborotlar ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Mazkur raqamli izlar shartli ravishda faol (aktiv) va passiv turlarga ajratiladi [10].

Faol raqamli izlar deganda foydalanuvchi tomonidan ongli ravishda taqdim etilgan ma'lumotlar, jumladan shaxsiy ma'lumotlar, foto va videomateriallar, shuningdek internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan izohlar tushuniladi.

Passiv raqamli izlar esa shaxs tomonidan maqsadli ravishda emas, balki axborot tizimlari va dasturiy ta'minotning ishlash xususiyatlari natijasida avtomatik tarzda shakllanadigan ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Bularga, xususan, brauzerda ko'rilgan sahifalar tarixi, internetdagi faoliyat jurnallari va boshqa texnik ma'lumotlar kiradi.

Faol va passiv raqamli izlar axborot sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda dalil sifatida qo'llanilishi mumkin. Ular ma'lumotning haqqoniyligini tasdiqlash yoki rad etish, jabrlanuvchi, guvoh yoki gumon qilinuvchining ko'rsatuvlarini tekshirish, shuningdek shaxsning jinoyatga aloqadorligi yoki aloqador emasligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, "onlayn" rejimda raqamli qurilmalardan olingan ma'lumotlar foydalanuvchilar va jinoyatga aloqador voqealar to'g'risida katta daliliy ahamiyatga ega axborotlarni o'z ichiga oladi. Masalan, video o'yinlarni o'ynash

uchun mo'ljallangan elektron qurilmalar foydalanuvchilarga oid konfidensial ma'lumotlarni saqlashi mumkin bo'lib, bunday ma'lumotlar bolalarni jinoyat va jinsiy ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq jinoyatlarni fosh etishda, shu jumladan zo'ravonlikka oid materiallarni internet tarmog'iga joylashtirish holatlarini aniqlashda qo'llanilgan [5].

Bundan tashqari, ovozli yordamchi qurilmalar, jumladan Amazon Echo (Alexa) kabi dasturiy-apparat vositalar foydalanuvchining afzalliklari, xaridlari va geopozitsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi. Shu turdagi qurilmalardan olingan ma'lumotlar AQSHda ayrim og'ir jinoyatlar bo'yicha olib borilgan tergov ishlarida dalil sifatida qo'llanilgan va sud muhokamalarida taqdim etilgan holatlar mavjud.

Alohida e'tiborni iPhone' yoki Samsungdagi Health ("Salomatlik") ilovasi jalb etadi, chunki u foydalanuvchining kundalik jismoniy faoliyatiga oid ma'lumotlarni muntazam ravishda yig'ib boradi. Xususan, qadamlar soni, bosib o'tilgan masofa va vaqt ko'rsatkichlari yuqori aniqlikda saqlanadi. Bunday ma'lumotlar ayrim hollarda jinoyat sodir etilgan vaqt va shaxsning harakat trayektoriyasini aniqlashda juda qimmatbaho raqamli dalil sifatida xizmat qilishi mumkin.

Raqamli qurilmalar foydalanuvchisining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar axborot sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda muhim axborot manbai bo'lishi mumkin. Xususan, shaxsning muayyan vaqt oralig'ida harakatlanish ehtimoli va marshrutlari haqida xulosa chiqarish imkoniyati mavjud. Agar bir shaxs bosib o'tishi mumkin bo'lgan bir nechta marshrutlar mavjud bo'lsa, ular iPhone Health yoki Samsung Health ("Salomatlik") ilovasida saqlangan ma'lumotlar bilan taqqoslanishi mumkin. Bunday taqqoslash orqali muayyan marshrut aynan shu shaxs tomonidan bosib o'tilganligini aniqlash, shuningdek qurilma foydalanuvchisining faol bo'lgan vaqt davrlarini baholash imkoni yuzaga keladi [6].

Amaliyotda foydalanuvchining salomatligi va jismoniy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'uvchi ilovalardan olingan axborotlar huquqni

muhofaza qiluvchi organlar tomonidan muhim raqamli ma'lumot manbai sifatida baholanmoqda. Jumladan, Niderlandiyada iPhone Health ("Salomatlik") ilovasidan olingan ma'lumotlar turli toifadagi jinoyatlarni tergov qilishda dalil sifatida qo'llanilgan. Shu bilan birga, ushbu ma'lumotlar jinoyat-protsessual amaliyotda qo'llanilishi uchun ularning haqiqiyliги va ishonchliligini tasdiqlash talab etiladi. Bu masala Niderlandiya Sud ekspertizasi instituti tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar orqali o'rganilgan bo'lib, tadqiqot natijalari mazkur ilovadan olingan ma'lumotlardan ishonchli ravishda foydalanish imkoniyatini tasdiqlagan.

Qayd etish joizki, raqamli qurilmalardan olingan ma'lumotlar yoki tezkor-qidiruv faoliyati doirasida axborot sifatida, yoki tergov va sud muhokamalarida raqamli dalil sifatida qo'llanilishi mumkin. Tergov jarayonida va sud muhokamasida taqdim etiladigan raqamli dalillar, odatda, ikki turga ajratiladi:

bevosita dalillar, ya'ni muayyan faktning mavjudligini to'g'ridan-to'g'ri tasdiqlovchi ma'lumotlar;

bilvosita dalillar, ya'ni faktning mavjudligi to'g'risida xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi ma'lumotlar.

Masalan, Telegram yoki YouTube ijtimoiy tarmog'ida muayyan shaxsga tegishli hisob nomidan haqoratli mazmundagi materiallar e'lon qilingan bo'lsa, bevosita dalil sifatida mazkur hisob orqali ushbu material joylashtirilganligi haqidagi fakt ko'rsatilishi mumkin. Bilvosita dalil sifatida esa, ushbu hisobning ma'lum bir shaxsga tegishli ekanligi va aynan shu shaxs tomonidan foydalanilganligi asosida xulosa chiqariladi.

Shu tariqa, raqamli dalillar nafaqat muayyan faktni tasdiqlashda, balki uning haqiqiyliги haqida asoslangan xulosa chiqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi hamda tergov va sud ekspertizasi jarayonlarida keng qo'llaniladi [2].

Biroq an'anaviy dalillar bilan taqqoslaganda, raqamli dalillarni autentifikatsiya (kimligi yoki nimaligi haqiqiyliğini tasdiqlash) qilish jarayonida muayyan qiyinchiliklar mavjud. Ushbu qiyinchiliklar, xususan, quyidagi omillar bilan bog'liq: olinayotgan ma'lumotlar hajmining kattaligi; ma'lumotlarning yuqori tezlikda uzatilishi; ma'lumotlarning o'zgaruvchanligi, ya'ni ularning

o'chirilishi yoki qayta yozilishi ehtimoli; ma'lumotlarni osonlikcha buzish yoki o'zgartirish imkoniyatining mavjudligi.

Shu bilan birga, turli davlatlar raqamli dalillarni autentifikatsiya qilish masalasida turlicha yondashuvlarni qo'llaydi. Ayrim davlatlar qonunchilikda raqamli dalillarga nisbatan asosiy autentifikatsiya talablarini belgilovchi dalil huquqi normalarini nazarda tutsa, boshqalari moddiy va raqamli dalillarni autentifikatsiya qilishda alohida protsessual usullardan foydalanadi [8].

Kompyuter ma'lumotlari sohasida sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha dalillarni olish va tahlil qilish amaliyotda eng asosiy va eng qiyin masalalardan biri hisoblanadi. Bu masalani hal qilish nafaqat alohida tergov harakatlarini tashkil qilish taktikasini ishlab chiqishni, balki axborot texnologiyalari sohasida maxsus bilimlarni va maxsus dasturiy ta'minotdan foydalanishni ham talab qiladi, shuningdek, amal qilayotgan qonunchilikka tegishli o'zgartishlar kiritish zarur.

Hozirgi vaqtda qonunchilikda belgilangan yagona usul – raqamli ma'lumotlarni tergov harakatlari orqali yig'ish hisoblanadi. Bunda qonunchilikda ko'zda tutilgan harakatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: ko'zdan kechirish, tintuv, olib qo'yish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, ekspertiza o'tkazish.

Xalqaro tajribada, masalan, AQSHda IBM kompaniyasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kompyuter ma'lumotlari sohasida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda yordam beradi. Kompaniya qonunchilikka muvofiq birlashtirilgan ma'lumotlar va professional baholashlarni taqdim etadi. IBM tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy mahsulotlar jinoyatlarni tergov qilishda ma'lumotlarni qayta ishlash vaqtini qisqartirishga yordam beradi. Shuningdek, kompaniya huquqni muhofaza qiluvchi organlarga dasturiy ta'minotdan samarali foydalanish uchun analitik materiallar va tavsiyalar taqdim qiladi.

Rossiya tajribasida ham shu kabi faoliyatni IB-Group kompaniyasi amalga oshiradi. Kompaniya xodimlari ichki ishlar organlari tashabbusi bilan tergov

harakatlarida qatnashadi, turli murakkab kompyuter-texnik ekspertizalarni o'tkazadi va raqamli dalillarni aniqlashda yordam ko'rsatadi.

Aytish joizki, sud ekspertizasi o'tkazilishi shart bo'lgan holatlar ro'yxati qonunchilikda aniq belgilangan bo'lib, u asosiy va to'liq hisoblanadi. Shu bilan birga, kompyuter ma'lumotlari sohasida sodir etilgan jinoyatlarni ochish va tergov qilishda qator maxsus masalalar bo'yicha ekspertiza o'tkazish zarurati alohida ta'kidlanadi. Xususan, bunday masalalarga quyidagilar kiradi:

– kompyuter dasturi yoki boshqa raqamli ma'lumotning ongli ravishda muayyan maqsadlarda qo'llanilganligi (ma'lumotni niyatli yo'q qilish, bloklash, o'zgartirish yoki nusxa olish);

– raqamli ma'lumotlarni himoya qilish vositalarini neytrallashtirish holatlari.

Shu sababli, amaldagi holatni inobatga olgan holda, Jinoyat-protsessual kodeksining 173-moddasi qo'shimcha "10" bandini kiritish, ya'ni kompyuter ma'lumotlari bilan bog'liq maxsus ekspertizalarni o'tkazish zarurligini qonun darajasida aniq belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Biroq amaldagi JPKda raqamli ma'lumotlar bilan ishlashga doir qator masalalar hanuzgacha yetarlicha tartibga solinmagan. Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, ish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlar saqlanayotgan saqlovchi qurilmalarni olish va tekshirish texnik yoki huquqiy sabablarga ko'ra murakkab, ayrim hollarda esa imkonsiz bo'lib qoladi.

Hozirgi kunda yangi turdagi dalillar, ya'ni "raqamli dalillar"ni protsessual jihatdan shaklga solish masalasi ochiq qolmoqda. "Raqamli dalil" atamasi ilmiy adabiyot va amaliyotda keng qo'llanilayotganiga qaramasdan, ko'plab tadqiqotchilar ularni alohida mustaqil tur sifatida ajratish va Jinoyat-protsessual kodeksda maxsus belgilash shart emas, degan fikrni ilgari surishmoqda.

Bizning fikrimizcha, raqamli dalillarning mazmuni va mohiyati har bir aniq ish doirasida alohida baholanishi lozim bo'lib, bunda milliy jinoyat-protsessual qonunchilik normalariga rioya etilishi shart.

Xulosa sifatida Avstriyaning Vena shahrida o'tkazilgan qator davlatlar vakillari ishtirokidagi uchrashuv natijalarini qayd etish mumkin. Mazkur

uchrashuvning asosiy maqsadi kompyuter jinoyatlarini o'rganish bo'yicha mutaxassislar guruhi hisobotida ko'tarilgan dolzarb masalalarni muhokama qilishdan iborat bo'lgan. Muhokamalar yakunlariga ko'ra, xalqaro miqyosda raqamli dalillarga nisbatan yagona ta'rif mavjud emasligi aniqlangan.

Shuningdek, elektron dalillarni to'plashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlarini qonuniy asosda belgilash, bu jarayonda maxfiylik, shaxsiy hayotga daxlsizlik va inson huquqlarini ta'minlash hamda tegishli huquqiy kafolatlarni joriy etish zarurligi alohida ta'kidlangan [9].

Shu tariqa, axborotni raqamli shaklga aylantiruvchi texnologiyalarning jadal rivojlanishi va keng tarqalishi kompyuter jinoyatlarini tergov qilish jarayonida qo'llaniladigan protsessual va texnik yondashuvlarni doimiy ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Raqamli dalillardan foydalanish nafaqat protsessual, balki kriminalistik faoliyatda ham istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Qonunchilikni takomillashtirish masalasi esa zarur o'zgartirishlar kiritishda namoyon bo'ladi, chunki raqamli texnologiyalar jinoyatlarni samarali ochish va tergov qilishda foydalanish katta imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Агибалов В. Ю. Компьютерные следы в криминалистике и уголовном процессе: автореферат диссертации кандидат юридических наук. – Воронеж: Воронежский государственный университет, 2010. – 198 с.

2. Астанов И.Р., Каримов Б.К. Ахборот технологиялари соҳасидаги жиноятларни очиш ва тергов қилишда рақамли экспертиза имконияларидан фойдаланиш: миллий ва хорижий тажриба: Ўқув қўлланма. – Тошкент: Бош прокуратура Академияси, 2019. – 62 б.

3. Балашова А. А. Электронные носители информации и их уголовно-процессуальное использование в доказывании: диссертации кандидат юридических наук. – Москва, 2020. – 216 с.

4. Бахтеев Д. В. Концептуальные основы теории криминалистического мышления и использования систем искусственного интеллекта в расследовании. Lex.uz

5. Васюков В. Ф. Особенности изъятия электронных носителей информации при производстве следственных действий: новеллы законодательства и проблемы правоприменения / В. Ф. Васюков // Криминалистика: вчера, сегодня, завтра? 2019. – № 2. – С. 8-12.

6. Гордилов А. В. Информационно-коммуникативное поведение молодых людей участников интернет-сообществ как социальная проблема. Lex.uz

7. Зигура, Н. А., Кудрявцева, А. В. Компьютерная информация как вид доказательства в уголовном процессе России: Монография. Lex.uz

8. Косынкин А. А. Некоторые аспекты преодоления противодействия расследованию преступлений в сфере компьютерной информации на стадии предварительного расследования // Российский следователь, 2012. – № 2. - С. 2-3.

9. Конвенция о киберпреступности, разработанная Советом Европы в Будапеште 23 ноября 2001 года. Lex.uz

10. Пастухов, П. С. Электронные доказательства в нормативной системе уголовно-процессуальных доказательств // Пермский юридический альманах. — 2019. — № 2. — С. 695–707— Москва: Юрлитинформ, 2011. — 234 с